



## TA'LIM JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'YINLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Z.K.Kalendarova,**  
*Qo'qon Universiteti*  
*"Ta'lim" kafedrasida*  
*katta o'qituvchisi*

*Annotatsiya.* Ushbu makolada ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda o'yinli texnologiyalardan foydalanishning bir qator jihatlari ko'rib o'tilgan va xususan amaliy va didaktik o'yinli texnologiya turlari va ularning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritish bilan birga ta'lim mazmunini rivojlantirish va takomillashtirishning eng ahamiyatli jihatlarni tahlil qilish va samarali yo'llarini amaliyotga joriy etish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim jarayoni, ta'lim samaradorligi, bilim malaka ko'nikma, texnologiya, rivojlanish.

XIX asr shaxsni shakllantirish asri bo'lib, respublikada kadrlar tayyorlashning maqsadli tizimini rivojlantirish, jamiyat va davlatning malakali va raqobatbardosh mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni qondirishni ko'zda tutadi.

Ta'lim tizimi inson va jamiyatning turfa xil ta'limiy ehtiyojlarni qondirishda keng imkoniyatlarni, bilimlarning ahamiyati va nufuzini oshirishi, shuningdek, mutaxassislarni umumta'lim, umummadaniy, kasbiy va ilmiy tayyorlashga qaratilgan bo'lishi va ular olayotgan bilimlarning fundamentalligini ta'minlashi shart.

Shuningdek, O'zbekistondagi strategik rivojlanish jarayonlari yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni taqozo qilmoqda. Pedagog kadrlar tayyorlashning sifatini ko'tarishda talabalarni ilm-fan taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan xabardor qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shiddat bilan ro'y berayotgan barcha o'zgarishlar, xususan, O'zbekiston ta'lim tizimining butun jahon bilan integratsiyalashuvi fanlarni nazriy va amaliy asoslarining takomillashtirishiga va o'z navbatida yangi atamalar va<sup>1</sup> tushunchalar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar esa bo'lajak o'qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko'plab fundamental tushunchalarni nisbatan engil, chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratishi shubhasiz. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev **"Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"**, - deya haqqoniy ravishda ta'kidlaydilar. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning nazariy masalalar bilan bir vaqtda, metodikaga xos fanlarni chuqur o'rganishi alohida

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston 2017. -107 b.



ahamiyat kasb etadi. Mazkur holat umumiy pedagogika metodik ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalarni aniqlashtirish va metodik ta'minotni ishlab chiqishni jadallashtirishni taqozo qilmoqda.

Albatta, pedagog olimlar va uslubchilar, ilg'or o'qituvchilar tomonidan o'quv-uslubiy tavsiyalar, adabiyotlar tayyorlanishi va chop ettirilishi borasida yutuqlarimiz mavjud. Jumladan, Respublika ta'lim markazi tomonidan bir qator qo'llanmalar yaratilib ta'lim muassasalariga yetkazilib berilmoqda. Ta'kidlash o'rinliki, boshlang'ich ta'lim uchun mutaxassislar yetkazib beruvchi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi umumkasbiy fanlarni o'qitish jarayonini takomillashtirish bo'yicha kun tartibida turgan masalalar bisyor.

Oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirish uchun talabalarda maktab ta'limidagi stereotiplarni qayta shakllantirish, ularni oliy ta'limga moslashtirish, kognitiv faoliyatda yangi ko'nikmalarni talab qiladigan oliy ta'limining xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Bunga erishish uchun deyarli barcha pedagoglarga ancha tanish va "o'rtoq" bo'lib qolgan pedagogik texnologiyalarni oliy ta'lim jarayoniga tatbiq etishni yanada jadallashtirish taqozo qilinadi.

Bundan tashqari xalqaro hamkorlik munosabatlari, amaliy tajriba, texnologiyalar, shuningdek, ilmning turli sohalarida mutaxassislar bilan almashish jadal rivojlanayotgan sharoitlarda, asosiy vazifasi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'lgan oliy ta'limning eng maqbul tizimini yaratish dolzarb bo'lib qolmoqda. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bugungi kunda siyosatda, iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada bo'layotgan o'zgarishlar, bozor iqtisodi va tezkor o'zgarishlar sharoitlarida odamlarni ijtimoiy himoya qilishning muhim omili hisoblanadi.

Shuningdek, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'quv tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Hozirgi kunda o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, uning mazmun mohiyatini bilish, uni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish va metodikasini yaratish juda muhimdir. Pedagogik kadrlarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini shakll antirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonning samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi



Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi globallashuv jarayonlarining jadal rivojlanishi orqali tavsiflanadi. Globallashuvni iqtisodiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, u jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi.

Shu bois globallashuv sharoitlarida mustaqil ravishda qaror qabul qila oladigan, maqsadlarni belgilay oladigan va amalga oshira oladigan, o'z faoliyatni ongli baholay oladigan faol shaxsni shakllantirish muammosi dolzarb bo'lib bormoqda.

Ta'lim jarayonining rivojlantiruvchi texnologiyalar asosida tashkil etilishini ta'minlash hozirgi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Endi o'qituvchi faqat bilim berish va amaliy ko'nikmani shakllantirish bilan chegaralanmasdan o'quvchilarni mustaqil bilim olish, izlanish va qarorlar qabul qilishga o'rgatishi kerak.<sup>2</sup>

Ta'lim jarayonini rivojlantiruvchi texnologiyalar asosida tashkil etish pedagogdan katta mahorat talab etadi. Rivojlantiruvchi texnologiyalar o'qituvchidan nafaqat o'quvchilarga bilim berish, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni, balki ularning shaxsini rivojlantirishni talab etadi. Bunda ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchining bir-biriga o'zaro ishonch, hamkorligi va jonli muloqoti orqali erishiladi. Rivojlantiruvchi texnologiyalar ta'lim jarayonida boshqacha yondashuvni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchiga va fanga nisbatan o'zining munosabatini o'zgarishga to'g'ri keladi.

Pedagog ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilishi, muloqot qilishning buyruqbozlik usulidan voz kechib, uni rag'batlantirishi, bajargan ishlarining foydali ekanini ta'kidlashi zarur. Maqsad o'quvchida avvaldan belgilangan xususiyatlarni shakllantirish emas, balki o'z-o'zini anglashi, o'zligini namoyish etishi uchun imkon berishdir.

An'anaviy ta'lim majburiylikka, o'qitishni qattiqqo'llik asosida tashkil etishga asoslangan bo'lib, bunda ta'lim oluvchilar deyarli mustaqil faoliyat yuritishmaydi va ularning tashabbuslari bostiriladi. An'anaviy o'qitishda o'quvchining o'quv faoliyati ijodiy xarakterga ega bo'lmaydi.

Biz kasbiy mahoratimizni, faqatgina ta'lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini nazorat qilishga emas, balki BMK-bilim, ko'nikma va malaka bilish va qo'llashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga malakali harakatlarimiz bilan yordam berishimiz uchun, ularning faoliyatini tashxis qilishga yo'naltirishimiz kerak.

1. <sup>2</sup> Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: "Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.



Rivojlantiruvchi texnologiyalar, o'z mohiyatiga ko'ra, ta'lim jarayonining barcha qatnashchilarining to'laqonli rivojlanishini nazarda tutadi. Bu esa nafaqat ta'lim oluvchini tayyorgarligini, uni qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'qitishga differentsiyalashgan yondashuv, balki ta'lim oluvchining psixologik kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hamda qobiliyatlarini hisobga olish hamdir.<sup>3</sup>

Rivojlantiruvchi texnologiyalar va uni amalga oshirishga Respublikamiz o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mustaqil va erkin fikrlaydigan tashabbuskor, irodali kichik mutaxassislarni tayyorlashga katta e'tibor bermog'ida. Shuningdek, kollejlarda ta'lim-arbiya jarayonini yuqori darajada tashkil etish bilan qatorda o'quvchilarning qiziqishi, xohish-istagi va ehtiyojiga qarab kasb-hunarga tayyorlash asosiy maqsad etib qo'yilgan<sup>6</sup>. Bugungi kunda kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassislarni bozor iqtisodiyoti talab va ehtiyojlari asosida tayyorlash, tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, kelajakda mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish muxim ahamiyatga ega. Buning uchun kasb-hunar kollejlarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish hamda sifatini nazorat qilishni yangicha yondashuv va zamonaviy usullar asosida ilmiy asoslangan mexanizmini yaratish talab etiladi.

Ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish paytida, biz rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarni amalga oshiramiz.

Chunki, shaxs "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ning asosiy komponentlaridan hisoblanadi; shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim tizimining maqsadi, uning nufuzli sub'ekti bo'lib qolmoqda.

Bir qator tadqiqotlarda kasb-hunar ta'limida rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari va amalda tatbiq etilishi o'rganilgan.

Jumladan Q.Tolipov ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar mohiyati va mazmuni ayniqsa modulli va muammoli o'qitish texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari yoritilgan.

I.A.Allayorov o'zining ilmiy ishida faol o'qitishning didaktik asoslarini ishlab chiqqan va ta'lim oluvchilarni faollashtirish ilmiy metodik tavsiyalari o'z aksini topgan.

2. <sup>3</sup> Z.K.Kalendarova. O'quvchilarning kommunikativ savodxonligini ta'minlashda dars materiallarini tanlash. // Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili. WWW.kokanduni.uz. Халқаро илмий-амалий конференция. 2024.17-22.б.



N.N.Azizxodjaeva adabiyotlarda pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan.

B.L.Farberman asarlarida yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, aksariyat tadqiqotlar va ilmiy pedagogik asarlarda, faqatgina o'qitish texnologiyasi nazariy jihatdan yoritilib berilgan.

Maxsus fanlar mazmunida ishlab chiqarish xususiyatlarining o'z aksini topishi, o'quvchi olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish imkoniyati ta'minlashi kerak. Kasb-hunar kolleji o'quvchilari maxsus fanga tegishli faoliyat usullari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning yangi maqsadlari ijodkor shaxsni shakllantirish, o'z faoliyatini mustaqil tanlashni shakllantirishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonining sifati aksariyat xollarda, o'quvchining qay darajada bilish sub'ekti bo'lishi, o'qish jarayonida faollik ko'rsatishi va mustaqil bilim olishga intilishi bilan belgilanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида” ги ПФ-5847-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги “Олий таълим муассасалари рейтингини аниqlаш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги №467 – сонли Қарори.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-Т.: “Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.
4. Xodjaev B.X. Innovatsion ta'lim texnologiyalari modulidan ma'ruza matnlari. - Т.:2015.
5. Махкамов, А. Ю., И. Х. Алиева, and Д. М. Абдуғаниева "Умумтаълим мактабларида спорт тўгаракларини ташкил этиш орқали таълим-тарбия самарадорлигини ошириш." сборники конференций ниц социосфера. no. 9. vedecko vydavatel'ske centrum sociosfera-cz sro, 2016.
6. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
7. Nargiza, V. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIGI. QO'QON Rasuljonovna, E. Z. . (2023). Bolalar Kitobxonligi Va Mediya Muhitida Bolalik



- Konseptining Ifodalanishi. *Miasto Przyszłości*, 40, 329–334. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1820>
8. Qaxxorova, M. (2024). GORNER SXEMASINING MATEMATIK ANALIZGA TATBIQI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(1), 3-9.
  9. Z.K.Kalendarova. O'quvchilarning kommunikativ savodxonligini ta'minlashda dars materiallarini tanlash. // *Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili*. WWW.kokanduni.uz. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. 2024.17-22.b.
  10. Erkinjonova, G. F. Q. (2021). BOLALAR KITOBXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING ORNI. *Scientific progress*, 2(2), 339-343.
  11. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. *Open Access Repository*, 9(4), 545-548.
  12. qizi Boymirzayeva, S. O. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BO'LAJAK TARBIYACHINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH. *GOLDEN BRAIN*, 2(7), 41-47.
  13. Rahmatullaeva, S. I. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА САЛОМАТЛИК МАСАЛАЛАРИ. In *ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ* (pp. 103-107).
  14. Temirova Mashhura Muhammadaminovna (2022). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (Farg'ona viloyati MIA misolida). *Research Focus*, (Special issue 1), 52-55.
  15. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 121-123.
  16. 2.Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 408-411.
  17. Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O 'RNI. *Kokand University Research Base*, 216-219.
  18. Maxliyoxon, O., & Shaxnozaxon, J. (2024). DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: Study guide. *ISBN-13*, 979-8324468415.
  19. Maxliyoxon. (2024). MODERN INTEGRATION OF PRIMARY EDUCATION, ART, PEDAGOGY AND INFORMATION COMMUNICATION. ISBN-13 : 979-8323781928 1, 158
  20. Odilova, M. (2024). O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA PISA TESTINING ISTIQBOLLARI. *Nordic\_Press*, 3(0003).